e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/fg3g9s23

BUXORO VILOYATIDA IJTIMOIY TA'MINOT MASALASI (2009–2020-YILLAR)

Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti, o'qituvchi.
e-mail: xayrullayevumidjon@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-2507-8421

Annotatsiya.
Maqolada Buxoro viloyatida ijtimoiy ta'minot tizimining amaliy faoliyati 2009–2019-yillar, shuningdek, 2020-yil davomida Buxoro viloyati davlat arxivi hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar va mahalliy budjet xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari hamda pensionerlarga ko'rsatilgan yordam, pensiya to'lovlari ustidan o'tkazilgan nazorat natijalari va ijtimoiy soha xarajatlarining dinamikasi yoritilgan. Tahlil natijalari yordam ko'rsatish shakllarida homiylik va natura shaklidagi yordamdan ro'yxatga asoslangan manzilli choralarga o'tish tendensiyasi kuzatilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, Buxoro viloyati, nafaqa, pensiya, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, "Temir daftar", mahalliy budjet.

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ (2009–2020 ГГ.)

Хайруллаев Умиджон Файзулло угли
Азиатский международный университет, преподаватель.

Аннотация.
В статье анализируется практическая деятельность системы социального обеспечения Бухарской области за 2009–2019 годы, а также за 2020 год на основе документов Государственного архива Бухарской области, нормативно-правовых актов и данных о расходах местного бюджета. Рассматриваются меры помощи малообеспеченным семьям, лицам с инвалидностью, ветеранам войны и труда, а также пенсионерам, результаты контроля за пенсионными выплатами и динамика расходов на социальную сферу. Результаты анализа свидетельствуют о тенденции перехода от спонсорской и натуральной помощи к адресным мерам социальной поддержки, основанным на учёте получателей в специальных реестрах.

Ключевые слова: социальное обеспечение, социальная защита, Бухарская область, пособие, пенсия, лица с инвалидностью, малообеспеченные семьи, «Темир дафтар» («Железная тетрадь»), местный бюджет.

SOCIAL SECURITY ISSUES IN THE BUKHARA REGION (2009–2020)

Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li
Asia International University, Lecturer.

Abstract.
The article analyzes the practical functioning of the social security system in the Bukhara region during 2009–2019, as well as in 2020, based on documents from the State Archive of the Bukhara Region, regulatory legal acts, and data on local budget expenditures. It examines assistance provided to low-income families, persons with disabilities, war and labor veterans, and pensioners, along with the results of monitoring pension payments and trends in social sector expenditures. The analysis reveals a tendency to shift from sponsorship and in-kind assistance toward targeted social support measures based on beneficiary registers.

Keywords: social security, social protection, Bukhara region, social benefits, pensions, persons with disabilities, low-income families, "Temir Daftar" ("Iron Notebook"), local budget.

Kirish. Ijtimoiy ta'minot tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining ehtiyojmand qatlamlari — keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar va yetim bolalarning turmush darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishdagi qonun va qarorlarning amaliy natijalari, ayniqsa, hududlar kesimida alohida o'rganishni talab etadi.

Hududiy darajadagi ijtimoiy yordam faoliyati, asosan, hokimliklar, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, jamg'armalar va homiylik tashkilotlarining hisobotlarida aks etadi. Shu sababli Buxoro viloyatida ijtimoiy ta'minot masalasini arxiv hujjatlari asosida o'rganish mazkur sohadagi real ko'rsatkichlar va muammolarni aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqotning maqsadi — Buxoro viloyatida 2009–2019-yillarda (2020-yil ma'lumotlarini ham hisobga olgan holda) ijtimoiy ta'minot sohasida amalga oshirilgan tadbirlarning ko'lami, natijalari va kamchiliklarini aniqlash hamda

tizimdagi o‘zgarishlarni baholashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: me’yoriy-huquqiy asoslarni aniqlash; yordam ko‘rsatish shakllari va ko‘lamini o‘rganish; pensiya ta’minoti va to‘lovlar ustidan nazorat natijalarini tahlil qilish; mahalliy budjet xarajatlarida ijtimoiy soha ulushini baholash.

Tadqiqot obyekti — Buxoro viloyatidagi ijtimoiy ta’minot tizimi; predmeti — ushbu tizim doirasida ko‘rsatilgan yordam turlari, pensiya va nafaqa ta’minoti hamda ularni moliyalashtirish.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotning asosiy manbasi — Buxoro viloyat davlat arxivining 1459-fondi (1-ro‘yxat) yig‘majildlaridagi hujjatlardir. Ular O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlari (lex.uz milliy bazasi) hamda Buxoro viloyatining 2016–2017-yillardagi 9 oylik mahalliy budjet xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldirildi. Barcha havolalar sahifa ostidagi izohlarda keltirilgan.

Tadqiqotda tarixiy-xronologik usul, hujjatlar tahlili (kontent-tahlil), qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil jarayonida foiz, ulush va o‘sish sur’ati ko‘rsatkichlari manbadagi raqamlar asosida hisoblandi. Ma’lumotlar yillar kesimida xronologik tartibda guruhlandi va mavzu bo‘yicha tizimlashtirildi.

NATIJALAR

1. 2009-yil: “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” dasturi doirasidagi tadbirlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi qaroriga [1] muvofiq, viloyat hokimining 2009-yil 6-fevraldagi 49-sonli va tuman hokimining 2009-yil 16-fevraldagi 158-sonli qarorlari qabul qilingan. Ushbu qarorlar asosida tuman uchun ikki qismdan iborat dastur tuzilgan.

Dasturga ko‘ra, kam ta’minlangan oilalarga yil davomida 100 bosh qoramol bepul berilishi belgilangan bo‘lib, 6 oy davomida 59 ta oila bepul qoramol bilan ta’minlandi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ham yordam ko‘rsatildi: aravachasi yaroqsiz holga kelgan 2 nafar shaxsga yangi aravachalar berildi. Shuningdek, reabilitatsiya texnika vositalariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida 1 mln 578 ming so‘mlik homiylik mablag‘i ajratildi [2]. Vobkent tumanida kam ta’minlangan oilalardan 4 tasi Xalq bankining tuman bo‘limi orqali qoramol olish uchun 4,3 mln so‘mlik kredit mablag‘lari bilan ta’minlandi. Shu bilan birga, 48 ta kam ta’minlangan oilaga homiylar tomonidan 48 bosh qoramol berildi [3]. 2009-yilda aholi jon boshiga o‘rtacha oylik daromad 39,7 foizga oshib, 339 535 so‘mga yetdi [4]. Shu davrda “Nuroniy” jamg‘armalari nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda 1 210 dan ortiq turli kechalar, uchrashuv va muloqotlar o‘tkazdi. Ularda keksa avlod vakillaridan 12 390 nafar, yosh avlod vakillaridan esa 37 260 nafardan ortiq kishi ishtirok etdi.

2. Faxriylar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yolg‘iz keksalarni qo‘llab-quvvatlash

Viloyat bo‘limi va shahar, tuman bo‘linmalari tomonidan hisobot yili davomida 2 026 nafar urush va front orti qatnashchilari hamda 28 975 nafar mehnat faxriylari, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yakka-yolg‘izlarga jamg‘arma, homiylar, mahalla va boshqa nodavlat tashkilotlar tomonidan 349,8 mln so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatildi. Shundan 335,7 mln so‘mi homiylar tomonidan ehson qilindi, 14,1 mln so‘mi esa “Nuroniy” jamg‘armalari mablag‘laridan ajratildi. Mustaqillik bayramining 17 yilligi arafasida 4 200 nafar keksaga homiylar tomonidan 42 mln so‘mlik muruvvat ko‘rsatildi.

Mehnat va ijtimoiy ta’minot bosh boshqarmasi tomonidan 252 kishiga aravacha, 104 kishiga eshitish moslamasi, 149 kishiga qo‘ltiqtayoq va 211 nafar faxriyga hassa berildi. Sanatoriylarga jami 1 445 kishi yuborildi: shundan 1 145 kishi Ijtimoiy ta’minot vazirligi sanatoriyalariga, 300 kishi kasaba uyushmalari sanatoriyalariga yo‘llandi; yana 23 kishi Toshkentdagi Gerontologiya shifoxonasida davolandi. 2008-yilda jami 3 452 nafar faxriy sog‘lomlashtirildi, viloyat shifoxonalarida 1 984 nafar, shundan 210 nafari viloyat Gerontologiya markazida davolandi. Ular uchun 16 556 ming so‘mlik dori-darmon ajratildi.

Viloyatning Romitan, Olot, Shofirkon va Vobkent tumanlarida o‘tkazilgan tadbirlar alohida e’tiborga loyiq. Masalan, Olot tumanida nogironligi bo‘lgan shaxslarga “Ekosan” jamg‘armasi bilan hamkorlikda 250 ming so‘mlik dori-darmon, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlari topshirildi. Tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan 116 nafar urush qatnashchisi va faxriyga sihatgohlarga yo‘llanma, 8 kishiga aravacha, 4 kishiga eshitish moslamasi, 18 kishiga hassa berildi. “Dorishunos” aksiyadorlik jamiyati tomonidan urush qatnashchilari va nogironligi bo‘lgan shaxslardan 56 nafariga 512 400 so‘mlik, mehnat fronti qatnashchilaridan 31 nafariga 275 770 so‘mlik, yakka-yolg‘iz pensionerlardan 26 nafariga 210 200 so‘mlik, baynalmilal jangchilardan 28 nafariga 226 430 so‘mlik, jami 141 nafar fuqaroga 1 224 800 so‘mlik bepul dori-darmonlar berildi [5].

3. Aholi daromadlari, pensiya ta’minoti va uning ustidan nazorat (2010–2013-yillar)

2010-yilda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdori 32 % ga oshdi. Aholining umumiy pul daromadlari jon boshiga 1,25 baravar ko‘paydi. Xarid qobiliyati va iste’mol mahsulotlari sifati oshganligi qayd etildi [6]. 2012-yilda pensiya va nafaqa oluvchilar soni 173 496 nafarni tashkil etdi. Shundan yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar 124 932 nafar, nogironlik nafaqasi oluvchilar 41 020 nafar, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi oluvchilar esa 7 444 nafar bo‘lgan [7].

2012-yil davomida nogironligi bo‘lgan 1 144 nafar shaxs to‘liq yoki qisman reabilitatsiya qilindi va shundan 512 nafarining nogironlik guruhlari bekor qilindi. Buxoro viloyati Nazorat-taftish boshqarmasi nazoratchi-taftishchilari tomonidan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Peshku tuman bo‘limida pensiyalar qonuniy asoslarda to‘g‘ri tayinlanganligi yuzasidan tekshiruv o‘tkazildi. Tekshiruvda ish haqi va mehnat staji to‘g‘risidagi ma’lumotlarning soxtalashtirilishi natijasida 38 ta holatda 63 875,0 ming so‘m mablag‘ tayinlanganligi aniqlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 53–58-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi 351-sonli qarori talablariga rioya qilinmasdan, ishlovchi pensionerlarga tayinlangan pensiya miqdorining 50 foizi to‘lanishi o‘rniga 100 foizi to‘lanishi natijasida 40 ta holatda 47 661,0 ming so‘m

ISSN 3060-5059 (Online)

mablag‘ ortiqcha to‘langanligi qayd etildi. Shunday qilib, tekshiruv yakunlari bo‘yicha jami 1 222 ta holatda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan 848 467,0 ming so‘m ortiqcha tayinlangani va to‘langani aniqlandi [8].

2013-yilda har bir kishiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad o‘rtacha 3 mln 992 ming so‘mga yetdi, xarajatlar esa qariyb 3 mln 155 ming so‘mni tashkil etdi. O‘rtacha oylik ish haqi 978,9 ming so‘mga yetdi. Bu oldingi yilga nisbatan 117 foizni tashkil qildi [9]. 2013-yil davomida Buxoro shahri, Romitan, Qorako‘l, Olot, G‘ijduvon va Qorovulbozor tumanlari bank rahbarlarining aybi bilan 3 mlrd 152 mln so‘mlik ish haqi, pensiya va nafaqa to‘lovlari asossiz ravishda kechiktirilgani aniqlanib, 21 nafar bank xodimi ma’muriy javobgarlikka tortilgan [10].

4. Mahalliy budjetdan ijtimoiy soha xarajatlari (2016–2017-yillar)

Buxoro viloyati mahalliy budjet xarajatlarining 2016–2017-yillardagi 9 oylik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. 2017-yilning 9 oyida xarajatlar jami 940 561,9 ga yetib, reja 101,0 % ga bajarildi va 2016-yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 781 231,4 ni tashkil etib (reja bajarilishi 99,2 %), 2016-yilga nisbatan 100,1 % ni tashkil etdi.

1-jadval. Buxoro viloyatining 2016–2017-yillar 9 oyida mahalliy byudjet xarajatlari

Xarajatlar (sohalar) nomi	2016 yil 9 oyida amalda	2017 yil rejasi	2017 yil ijrosi	Bajarilishi, %	Farqi (+,-)	O‘sish (%)
Xarajatlar jami	**898 088,7**	**931 600,8**	**940 561,9**	**101,0**	**8 961,1**	**104,7**
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari	**780 239,0**	**787 716,8**	**781 231,4**	**99,2**	**–6 485,4**	**100,1**
1.1. Ijtimoiy soha	**737 040,5**	**747 828,1**	**741 395,4**	**99,1**	**–6 432,7**	**100,6**
— Maorif	383 846,0	446 999,1	441 537,2	98,8	–5 461,9	115,0
— Oliy va o‘rta maxsus ta’limi, kadrlar tayyorlash	108 684,4	8 074,2	7 920,6	98,1	–153,5	7,3
— Madaniyat va sport	7 259,7	7 885,3	9 801,2	124,3	1 915,9	135,0
— Fan	595,8	754,1	711,0	94,3	–43,1	119,3
— Sog‘liqni saqlash	236 654,6	284 115,4	281 425,4	99,1	–2 690,1	118,9
1.2. Ijtimoiy himoya	**43 198,4**	**39 888,7**	**39 836,0**	**99,9**	**–52,7**	**92,2**
— Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar	43 198,4	39 888,7	39 836,0	99,9	–52,7	92,2

5. Yetim bolalar va ish haqi masalasidagi qarorlar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-sonli “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 31-iyuldagi PF-4639-sonli Farmoniga muvofiq, 2014-yil 1-sentabrdan boshlab eng kam ish haqi miqdori 1,12 baravar oshirilgan [2].

6. “Temir daftar” va 2020-yildagi qo‘shimcha chora-tadbirlar

Viloyat hokimining 2020-yil noyabrdagi farmoyishiga ilova qilingan “Temir daftar”ga kiritilgan muhtoj oilalardagi har bir fuqaroga 2020-yil 1-dekabrdan 2021-yil 1-maygacha yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining ro‘yxati va hajmi haqidagi ma’lumotlar [3] 2-jadvalda keltirilgan. Jadvalda ro‘yxatdagi oltita mahsulot turi ko‘rsatilgan.

2-jadval. “Temir daftar”ga kiritilgan muhtoj oilalardagi har bir fuqaroga yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari (2020-yil 1-dekabr – 2021-yil 1-may)

№	Mahsulot turi	Narxi (ming so‘m)	1 oyda beriladigan hajm (kg)	1 oyda mablag‘ (ming so‘m)	5 oyda beriladigan hajm (kg)	5 oyda mablag‘ (ming so‘m)
1	Bug‘doy uni	2,5	0,6	1,4	2,9	7,2
2	Kartoshka	3,0	2,0	6,0	10,0	30,0
3	Piyoz	1,5	0,5	0,8	2,5	3,8
4	Guruch	6,0	0,3	1,8	1,5	9,0
5	Shakar	6,5	0,3	2,0	1,5	9,8

ISSN 3060-5059 (Online)

№	Mahsulot turi	Narxi (ming so'm)	1 oyda beriladigan hajm (kg)	1 oyda mablag' (ming so'm)	5 oyda beriladigan hajm (kg)	5 oyda mablag' (ming so'm)
6	O'simlik yog'i	13,2	0,3	4,0	1,5	19,8

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-noyabrdagi 07-07/10-89-sonli yig'ilish bayonida 30-noyabrdan 30-dekabrgacha o'tkaziladigan "Mehr-muruvvat oyligi"ni yuqori saviyada o'tkazish topshirilgan. 2020-yil holatiga ko'ra, viloyatda 38 ming nafardan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qilgan va ularga turli ko'rinishdagi insonparvarlik yordamlari ko'rsatilgan. Viloyatdagi ayrim ehtiyojmand nogironligi bo'lgan shaxslarning 200 nafariga "Viloyat hokimi sovg'asi" sifatida oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etilishi maqsadga muvofiq deb topilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir kishiga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati ishlab chiqilgan. Tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun jami 71 680,0 ming so'm mablag' ajratilishi lozimligi ko'rsatilgan [1]. 12 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi bir kishi uchun 313 400 so'mni, 200 kishi uchun esa 62 680,0 ming so'mni tashkil etadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli qarori kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu qaror mehnat bozorida samarali mexanizmlarni joriy etish va "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali kasb-hunarga o'qitish tizimini kengaytirishni ko'zda tutadi [3, 4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-avgustdagi PQ-4815-sonli "Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [5] ijtimoiy yordamni kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, 2019-yil 1-oktabrdan Sirdaryo viloyatida tajriba loyihasi doirasida bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa, 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam (keyingi o'rinlarda — ijtimoiy nafaqalar) tayinlashni ko'rib chiqish va belgilash tartib-taomillari joriy etildi [6].

MUHOKAMA

Arxiv ma'lumotlari ijtimoiy ta'minot tizimida bir necha o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchidan, 2009–2010-yillarda yordam ko'p hollarda natural shaklda (qoramol, aravacha, eshitish moslamasi, dori-darmon) va homiylar ishtirokida ko'rsatilgan. Faxriylar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilgan 349,8 mln so'mlik moddiy yordamning 335,7 mln so'mi (taxminan 96 %) homiylar hissasiga to'g'ri keladi, "Nuroniy" jamg'armalari ulushi esa 14,1 mln so'mni tashkil etgan. Qoramol berish dasturi bo'yicha esa yil uchun belgilangan 100 ta rejaning 59 tasi yarim yil davomida bajarilgan.

Ikkinchidan, daromad ko'rsatkichlari 2009–2013-yillarda o'sish tendensiyasini ko'rsatadi: 2009-yilda jon boshiga oylik daromad 39,7 % ga oshgan, 2010-yilda ish haqi, pensiya va nafaqalar 32 % ga ko'paygan, 2013-yilda esa o'rtacha oylik ish haqi oldingi yilga nisbatan 117 % ni tashkil etgan. Biroq bu ko'rsatkichlar turli indikatorlarga tegishli bo'lib, ularni bevosita taqqoslab bo'lmaydi. Shuningdek, inflyatsiya hisobga olinmagan. 2012-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, pensiya va nafaqa oluvchilarning aksariyatini (taxminan 72 %) yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar tashkil etgan.

Uchinchidan, pensiya ta'minoti ustidan nazorat jarayonida jiddiy kamchiliklar aniqlangan. Peshku tuman bo'limida o'tkazilgan tekshiruvda jami 1222 ta holatda 848 467,0 ming so'm mablag' ortiqcha tayinlangani va to'langani qayd etilgan. Bunda alohida ko'rsatilgan ikki turdagi qoidabuzarlik (38 va 40 ta holat) umumiy sondan ancha kam bo'lgani sababli, boshqa turdagi qoidabuzarliklar ham mavjud bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. 2013-yilda bank rahbarlarining aybi bilan 3 mlrd 152 mln so'mlik to'lovlarning kechiktirilishi esa to'lovlarni yetkazib berish bosqichidagi muammolarni ko'rsatadi.

To'rtinchidan, mahalliy budjet ma'lumotlari ijtimoiy sohaning xarajatlardagi ustuvorligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari ulushi 2016-yilning 9 oyida 86,9 % (780 239,0 / 898 088,7), 2017-yilda esa 83,1 % (781 231,4 / 940 561,9) ni tashkil etgan. Mutlaq miqdor deyarli o'zgarmagan (100,1 %), ammo umumiy xarajatlarning o'sishi hisobiga ulush qisqargan. Soha ichida maorif (115,0 %) va sog'liqni saqlash (118,9 %) xarajatlari o'sgan, bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar esa 92,2 % ga, ya'ni 43 198,4 dan 39 836,0 gacha kamaygan; ularning umumiy xarajatlardagi ulushi taxminan 4,8 % dan 4,2 % ga tushgan.

Beshinchidan, 2019–2020-yillardagi hujjatlar yordam ko'rsatish tamoyillari o'zgarayotganini ko'rsatadi. "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga har bir fuqaro uchun aniq mahsulot turlari, hajmi va muddati belgilangan. 2019-yilda Sirdaryo viloyatida ijtimoiy nafaqalarni tayinlash tartib-taomillari tajriba tariqasida joriy etilgan, 2020-yilgi qarorlarda esa ijtimoiy yordam kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka, kasb-hunarga va bandlikka jalb qilish bilan bog'langan. Bu 2009-yildagi homiylik va natural yordamga asoslangan yondashuvdan ro'yxatga asoslangan, manzilli va bandlikka yo'naltirilgan tizimga o'tish tendensiyasidan dalolat beradi.

Tadqiqotning cheklovlari. Arxiv ma'lumotlari yillar bo'yicha bir tekis emas: 2014–2015 va 2018-yillar uchun ma'lumotlar keltirilmagan, ayrim hujjatlar (2020-yilgi mahsulotlar ro'yxati va mablag' hisob-kitoblari) rejalashtirilgan tadbirlarni aks ettiradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu bo'shliqlarni to'ldirish, ko'rsatkichlarni inflyatsiyaga moslab qiyoslash hamda yordam olgan oilalar soni va yordam samaradorligini baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Buxoro viloyatida ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat 2009–2020-yillarda homiylik va natural yordamga tayangan tadbirlardan pensiya, nafaqa va muhtoj oilalar ro'yxatiga asoslangan choralar tomon rivojlangani arxiv hujjatlari bilan tasdiqlandi. Faxriylar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz keksalarga katta hajmda yordam ko'rsatilgan bo'lsa-da, pensiya to'lovlarini tayinlash va yetkazib berishdagi kamchiliklar, shuningdek, bolali oilalarga nafaqalar ulushining qisqarishi sohada muammolar saqlanib qolganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalaridan hududiy ijtimoiy siyosatni tahlil qilishda va ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishda

ISSN 3060-5059 (Online)

foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. – 1993-yil 3-sentabr. – 53–58-moddalar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi 351-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-sonli «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. – URL: https://lex.uz/acts/-1437232.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-sonli «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 31-iyuldagi PF-4639-sonli Farmoni. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-2438977.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-4945748.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-avgustdagi PQ-4815-sonli «Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4969867.

II. Arxiv materiallari

8. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 789-yig'ma jild, 29, 30, 96-varaqlar.
9. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 795-yig'ma jild, 51-varaq.
10. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 915-yig'ma jild, 97-varaq.
11. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 975-yig'ma jild, 13, 47-varaqlar.
12. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1066-yig'ma jild, 47-varaq.
13. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1071-yig'ma jild, 68-varaq.
14. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1568-yig'ma jild, 15-varaq.
15. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1678-yig'ma jild, 31-varaq.
16. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1680-yig'ma jild, 73, 190-varaqlar.
17. Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA). – 1459-fond, 1-ro'yxat, 1694-yig'ma jild, 100-varaq.